

**2024-yil davomida “Hududiy elektr tarmoqlari” AJ monopoliyaga qarshi komplaens tizimi
faoliyatiga oid amalga oshirilgan ishlar yuzasidan
HISOBOT**

T/r	Belgilangan vazifalar	Amalga oshirilgan ishlar
1	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2024-yilga mo‘ljallangan "yo‘l xaritasi" ishlab chiqilganligi va tasdiqlanganligi.	Jamiyatning 2024 yil 22 yanvarda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2024-yilga mo‘ljallangan "yo‘l xaritasi" ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. http://het.uz/uploads/1c09d3b0-627c-5407-1be6-0d3e02732da8_media .pdf https://het.uz/oz/pages/view/monopol
2	Tashkilot faoliyatiga oid bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ichki monopoliyaga qarshi komplaens bo‘linmasi (mas‘ul xodimi) bilan majburiy tartibda kelishish tartibi joriy etilganligi.	Jamiyatning 2022-yildagi 6-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to‘g‘risidagi” Nizomiga asosan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ichki hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida ichki monopoliyaga qarshi komplaens bo‘linmasi bilan kelishiladi.
3	Raqobat cheklanishiga, shuningdek raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste‘molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlar haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa vositalari tashkil etilganligi.	Jamiyatda Raqobat cheklanishi, raqobat yoki tabiiy monopoliya sharoitlarida iste‘molchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini kamsitilishiga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlar haqida xabar berishga mo‘ljallangan aloqa vositalari tashkil etilganligi 1. facebook ijtimoiy tarmog‘dagi aloqa kanali- https://www.facebook.com/ ; 2. Pochta- info@het.uz ;

		<p>3. Rasmiy veb sayt onlayn murojaat asosida- https://www.het.uz/oz;</p> <p>4. Telegram messenjeridagi aloqa kanali- https://t.me/hetmuloqot;</p> <p>5. 1154 Koll markaz-“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ;</p> <p>6. Ishonch telefoni -78 150 75 64, 78 150 75 61;</p> <p>7. Telegram bot aloqa kanali- https://t.me/HETanticor_bot.</p>
4	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari oldi olinganligi.	<p>Jamiyatning 2024 yil 22 yanvarda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish va mazkur sohadagi qonunbuzilishlarning oldini olish maqsadida 2024-yilga mo‘ljallangan "yo‘l xaritasi" hamda 2022yildagi 6-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to‘g‘risidagi” Nizomining Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi holatlari oldini olish bo‘yicha talablari bajarilgan.</p>
5	Raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlanganligi va ularni tartibga solish bo‘yicha choralar ko‘rilganligi.	<p>Jamiyatda 3 ta holatda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik buzilishi holatlari aniqlangan va ularni tartibga solish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rilgan.</p>
6	Tashkilot faoliyatida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishi mumkin bo‘lgan sohalarni xavflar tasnifi asosida darajalarga bo‘linganligi.	<p>Amaldgai raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik va ichki idoraviy hujjatlar talablari buzilishi mumkin bo‘lgan sohalarni xavflar tasnifi asosida darajalarga bo‘lingan.</p>
7	Tashkilot faoliyatiga oid ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlarning loyihalari o‘rganilganligi, bunda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan normalar (holatlar) aniqlangan taqdirda, uni mazkur qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqlashtirish yuzasidan tegishli ishlar amalga oshirilganligi.	<p>Jamiyatda ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar va ichki hujjatlarning loyihalari o‘rganilgan, bunda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan normalar (holatlar) aniqlanmagan.</p>

8	<p>Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlaridan kelib chiqib, amaldagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan ishlab chiqilgan takliflar va ularning amaliyotga tatbiq etilganligi.</p>	<p>Jamiyatda Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlaridan kelib chiqib, amaldagi ichki idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq etilgan.</p>
9	<p>Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilganligi.</p>	<p>Jamiyatda O'zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste'molchilar huquqlarini himoya qilish qo'mitasining 2024 yil 3 iyundagi 850/03-29-son xatiga asosan 35 ta xodim raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari bo'yicha bilim va ko'nikmalari oshirilgan. https://t.me/RaqobatGovUz/9259, https://t.me/RaqobatGovUz/9316.</p>
10	<p>Tashkilot xodimlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida muntazam ravishda test sinovlari o'tkazilganligi.</p>	<p>Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablaridan qay darajada xabardorligini aniqlash maqsadida 35 ta xodimlar bilan test sinovlari o'tkazilgan. https://t.me/RaqobatGovUz/9259, https://t.me/RaqobatGovUz/9316.</p>
11	<p>Tashkilot rahbari, ularning o'rinbosarlari va mas'ul xodimlari tomonidan monopoliyaga qarshi komplaens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda chiqishlar.</p>	<p>Jamiyatda monopoliyaga qarshi komplaens tizimi faoliyati yuzasidan ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda 12 ta chiqishlar tashkil etilgan.</p>